

**O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AMIROVA DAMIRA BEGALIYEVNA

**INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI
O'QITUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Amirova Damira Begaliyevna

Innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini
rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....3

Амирова Дамира Бегалиевна

Совершенствование методики развития критического мышления будущих
учителей английского языка в условиях инновационного образования25

Amirova Damira Begaliyevna

Improving the methodology for developing prospective English language teachers’
critical thinking in an innovative educational environment.....49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AMIROVA DAMIRA BEGALIYEVNA

**INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI
O'QITUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped9955 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) tilda ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Atadjanova Shaxnoz Abbasovna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Komilov Nodir Boqijonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Utaeva Iroda Baxodirovna,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD),dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100138, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 27682-32, fax: (+99871) 276-76-51, email: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 27682-32, fax: (+99871) 276-76-51, email: tdpu_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “___” _____da “___” raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.A.Abdullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

N.M.Axmedova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),
dotsent

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon oliy ta’lim muassasalarining innovatsion ta’lim sharoitida bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarining tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan kreativ texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb ilmiy va amaliy masala sifatida baholanmoqda. Ingliz tilini o’qitish jarayoni nafaqat til qoidalarini o’zlashtirish bilan cheklanmay, balki talabalarning ijtimoiy, madaniy va intellektual faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik vosita sifatida ko’rilmoxda. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib, bu orqali talabalar: o’z fikrini mantiqan asoslash, murakkab muammolarni chuqur tahlil qilish, ongli qarorlar qabul qilish va axborotni ilmiy asosda baholash kabi yuqori darajadagi kognitiv ko’nikmalarga ega bo’ladilar. Shu bois, kreativ texnologiyalarni qo’llash nafaqat til o’rgatish samaradorligini oshiradi, balki pedagogik jarayonda talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishni tizimli va metodologik jihatdan ta’minlaydi. YUNESKO tomonidan taklif etilgan “malakali kadrlarning xorijiy tillarni o’zlashtirish darajasini yuksaltirish vazifalarini ta’minlash”¹ bo’yicha amaliy ishlar tizimli olib borilmoqda.

Jahonning yetakchi ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida global ta’lim tendensiyalari bilan uyg‘unlikda innovatsion va kreativ pedagogik texnologiyalarni qo’llash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo’naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Til o’rgatishning ko’p funksiyali yondashuvidan ta’lim amaliyotida foydalanish, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni, ingliz tilidagi lingvistik ko’nikmalarni, ijtimoiy-intellektual dinamik tizimga xizmat qiluvchi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, mantiqiy qarorlar qabul qilish va o’quv jarayonini samarali boshqarish imkonini beruvchi metodikalarni takomillashtirishga ehtiyoj oshmoqda. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib, bu orqali talabalar o’z fikrini asosli ifodalash, muammoni chuqur tahlil qilish va axborotni baholash kabi ko’nikmalarga ega bo’ladi.

Respublikamizda so’nggi yillarda oliy ta’lim sifatini oshirish, bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarining tanqidiy fikrlashini innovatsion ta’lim sharoitida rivojlantirish, talabalarni hayotiy muammolarni hal etishning ijodiy yo’llarini egallashga yo’naltirish, o’z-o’zini rivojlantirish va o’z-o’zini tarbiyalashning me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Shuni inobatga olgan holda, “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida “...kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish”² ustuvor vazifalar etib belgilandi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tili ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga yo’naltirilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliy jihatdan asoslash hozirgi zamon til ta’limining muhim ilmiy-

¹ IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 * IAU HORIZONS. https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light_.pdf

² 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmon

amaliy muammolaridan biridir. Dissertatsiya mavzusi mazkur ehtiyojga bevosita javob bo‘lib, uning nazariy va amaliy ahamiyati bilan dolzarbliги asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2012 yil 10 dekabrdagi PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775 son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining xorijiy tilni o‘qitishning konseptual asoslari yuzasidan yetuk olimlar Sh.A. Atadjanova, J.J. Jalolov, G.T. Mahkamova, T.Sattorov, S.Saidaliyev, U.Xoshimovlar tadqiq qilishgan. Xorijiy tillarni o‘qitishda kasbiy tayyorgarlik jarayonida ijodiy, mantiqiy va tanqidiy fikrlash masalalari bo‘yicha N.M. Axmedova, F. Alimov, M.X. Gulyamova, G.O. Maqsudova, M.Mavlanova, D.M. Abdullayeva, K.Dj. Riskulova, D.X. Saydazimova, G.X. Eshchanovalar tadqiqot ishlari olib borishgan.

MDH olimlaridan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari Ye.M. Istomina, A. A. Leontev, V.S. Egorina, F.F. Minkina, Ye.A. Muxina, F.Uzturk, N.Yu. Tulasinova, S.I. Zair-Bek, A.M. Matyushkin, I.O. Zagashhev, I.A. Zimnyaya, A.N. Ksenofontova, A.P. Tryapisina, G.I. Shukinalarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Xorijlik olimlardan R.Paul, L.N. Kogan, B.Davidson, J.Moon, C.Wallace, P.Stapleton, T.V. Gelder, D.Xalpern, R.H. Ennis, I.V. Blaubergerlar tadqiqotlarida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va

ularning malakasini oshirish, elektron-ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion ta’lim sharoitida tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning modelini takomillashtirish;

innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi divirgent va konvergent tafakkur shakllarini uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirish;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini innovatsion ta’lim sharoitida rivojlantirish mezonlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish jarayoni belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Qo‘qon davlat universitetlaridan 485 nafar talaba qatnashdi.

Tadqiqotning predmetini innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ko‘zlangan maqsadlarga erishish va qo‘yilgan vazifalar yechimini topish uchun nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish), diagnostik (so‘rovlari, test o‘tkazish, kuzatish, loyihalashtirish), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) usullardan foydalinildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari faol mulohazaga yo‘naltirilgan o‘quv muhitida matn va nutq birliklarini divergent va konvergent tafakkur uyg‘unligiga mos nutqiy ifodalanishining kognitiv-analitik talqin birligi refleksiv mulohazaning metatalqin sathiga ko‘ra aniqlashtirilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modeli kasbiy tayyorgarlik jarayonida interaktiv-tahliliy ta’lim muhitining o‘zaro bog‘liq elementlarini analitik mulohazaning argumentativ-kommunikativ ifodaga transformatsiyalanishini ta’minlovchi yaxlit pedagogik makon sifatida tashkil etilishi tanqidiy tahlilning diskursiv me’yorlari asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi muammoli va multimodal ta’limda “g‘oyalar mikseri” usulining spontan vaziyatlarda mantiqiy-tanqidiy fikr yuritishni idrokiy faollashtirish

nutqiy qaror qabul qilish jarayonlarini tezkor kognitiv qayta tuzilish mobilizatsiyasiga ko‘ra takomillashtirilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi qiyosiy tahlil va refleksiv mulohazalar ko‘rsatkichlarini nutqiy faoliyat mazmuniga yo‘naltirishda matn va nutq birliklarini kognitiv-lingvistik tahlil asosida tanqidiy-refleksiv profillashuviga ko‘ra fikriy o‘sish dinamikasini aks ettirish orqali oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish bo‘yicha baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan.

Xorijiy til va adabiyot (Ingliz tili) yo‘nalishi talabalariga “Research writing” va “Practice of Linguistic aspects” nomli o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi bilish nazariyasi metodologiyasi (bilishning didaktik metodi, o‘quv fanlari, jamiyat xodisalarining tahlil qilinishiga innovatsion-kreativ yondashuv) hamda pedagogik ta’lim sohasidagi mamlakatimiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchi talabalarning ishlariga asoslanilganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatdan ta’minlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijalari pedagogika nazariyasi hamda ingliz tili o‘qitish metodikasi sohasini yangi ilmiy xulosalar bilan boyitishi; innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga oid nazariy qarashlar tizimlanishi; tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonining mazmuni, tuzilmasi, mezonlari va ko‘rsatkichlari aniqlashtirilishi; tadqiqot asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik model ishlab chiqilishi; mazkur modelning tarkibiy komponentlari ilmiy jihatdan asoslanishi; innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida samarali metodik yondashuvlar taklif etilishi va tadqiqot natijalari bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati. Tadqiqotda ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va o‘quv-topshiriqlar tizimi oliy ta’lim muassasalarida amaliyotga joriy etilishi; ushbu materiallardan “O‘qish va yozish amaliyoti” fan mashg‘ulotlarida foydalanish imkoniyati yaratilishi; tadqiqot natijalari dars jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga yordam berishi; bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi; malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida foydalanishi hamda o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi

Innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari faol mulohazaga yo‘naltirilgan o‘quv muhitida matn va nutq birliklarini divergent va konvergent tafakkur uyg‘unligiga mos nutqiy ifodalanishini kognitiv-analitik talqin birligi refleksiv mulohazaning metatalqin sathiga ko‘ra aniqlashtirishga oid tavsiyalar “Research writing” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 6-avgustdagi № 22-01-437/22- sonli dalolatnomasi). Natijada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining ilmiy matnlarni tahliliy o‘qish (critical reading) va akademik yozma nutqda fikrni asoslash (academic writing) ko‘nikmalari divergent va konvergent tafakkur uyg‘unligida rivojlantirildi;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modeli kasbiy tayyorgarlik jarayonida interaktiv-tahliliy ta’lim muhitining o‘zaro bog‘liq elementlarini analitik mulohazaning argumentativ-kommunikativ ifodaga transformatsiyalanishini ta’minlovchi yaxlit pedagogik makon sifatida tashkil etilishi tanqidiy tahlilning diskursiv me’yorlari asosida takomillashtirishga oid takliflar “Research writing” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 6-avgustdagi № 22-01-437/22- sonli dalolatnomasi). Natijada, ingliz tilida argumentativ fikrni og‘zaki va yozma shaklda ifodalash (speaking-writing skills) orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash imkonni yaratildi;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi muammoli va multimodal ta’limda “g‘oyalar mikseri” usulining spontan vaziyatlarda mantiqiy-tanqidiy fikr yuritishni idrokiy faollashtirish nutqiy qaror qabul qilish jarayonlarini tezkor kognitiv qayta tuzilish mobilizatsiyasiga ko‘ra takomillashtirishga oid tavsiyalar “Practice of Linguistic Aspects” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 6-avgustdagi № 22-01-437/22- sonli dalolatnomasi)). Natijada, muammoli va multimodal ta’lim sharoitida ingliz tilida tezkor nutqiy qaror qabul qilish va mantiqiy xulosa chiqarish (critical speaking skills) ga yo‘naltirilgan tanqidiy fikrlash modeli takomillashtirildi;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi qiyosiy tahlil va refleksiv mulohazalar ko‘rsatkichlarini nutqiy faoliyat mazmuniga yo‘naltirishda matn va nutq birliklarini kognitiv-lingvistik tahlil asosida tanqidiy-refleksiv profillashuviga ko‘ra fikriy o‘sish dinamikasini aks ettirish orqali oshirishga oid takliflar “Practice of Linguistic Aspects” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 6-avgustdagi № 22-01-437/22- sonli dalolatnomasi)). Natijada, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini baholash o‘qish, yozish va nutqiy faoliyatdagi refleksiv-tahliliy ko‘rsatkichlarga tayangan holda aniqlashtirildi va rivojlantirish mexanizmlari kengaytirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shulardan, 2 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 165 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'naliishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish muammosining nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning lingvodidaktik asoslari til kompetensiyasini rivojlantirish, metodika tanlash, o'qitish vositalari va texnologiyalarini qo'llash, shuningdek, ta'lim natijadorligini oshirish bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda innovatsion ta'lim sharoitiga tayanish imkoniyatlari o'rganilgan.

Bugungi ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, axborotni tahlil qila oladigan, dalillarga asoslangan holda xulosa chiqara oladigan, turli nuqtai nazarlarni solishtira oladigan va muammolarga ijodiy yechim topishga qodir shaxsni rivojlantirishdan iborat. Aynan bunday shaxs jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashi, mustaqil fikrashi, o'z qarashlariga ega bo'lishi va ularni asoslay olishi bilan ajralib turadi.

Ayni paytda xorijiy adabiyotlarda ingliz tilini o'qitishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ko'plab modellari ishlab chiqilgan bo'lib, ular asosida talabalarni mustaqil tahlil, muloqot va bahs-munozaralarga tayyorlash ko'zda tutilgan. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ta'lim sifatini oshirish, talabalarni global fikrlashga yo'naltirish va kommunikativ kompetensiyalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda "fikrlash", "tafakkur", "tanqidiy fikrlash" tushunchalari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi.

Fikrlash tushunchasining mohiyatiga doir turli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, ularning ayrimlari ingliz tilini o'qitish jarayoniga ham bevosita taalluqlidir. L.V.Jarova ta'kidlaganidek, bilish faoliyati inson fikrashi, xulq-atvorining namoyon bo'lish shakllari hamda yashirin tafakkur naqshlarini o'z ichiga oladi. E.V. Korotaeva

olib borgan tahlillarga ko‘ra, bilish faoliyati asosan kognitiv motivlar asosida yuzaga chiqadi va aynan shu motivlar shaxsning ta’limiy faolligini ta’minlaydi.

Ta’lim jarayonida abstrakt fikrlash talabaga fikrlash faoliyatining ixtiyoriy darajasiga xos bo‘lgan asosiy usullari quyidagilar hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida abstrakt fikrlash talabaning tafakkur faoliyatini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda analiz, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish va umumlashtirish kabi usullar asosiy kognitiv operatsiyalar sifatida namoyon bo‘lib, tanqidiy va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni faol mulohazaga yo‘naltirilgan o‘quv muhiti asosida yangi yondashuvda talqin qilinadi. Tadqiqot natijasida talabalarning matn va nutq birliklari bilan ishlash jarayonida divergent (muqobil yechimlarni izlash) va konvergent (eng maqbul yechimni tanlash) tafakkur turlarini uyg‘unlashtirish orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirishning aniq didaktik imkoniyatlari aniqlanadi.

Mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning matnni tahlil qilish, baholash, qayta talqin qilish hamda shaxsiy pozitsiyasini asoslab ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kognitiv-analitik talqin birligi asosida tuzilgan topshiriqlar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda mantiqiy xulosa chiqarish, dalillash va muammoga ongli yondashish qobiliyatlari shakllanishi kutiladi.

Shuningdek, refleksiv mulohazaning metatalqin sathiga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar talabalarni o‘z fikrlash jarayonini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga o‘rgatadi. Natijada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasi mazmunan boyib, ularning mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy yondashish hamda kasbiy vaziyatlarda asosli tanlov qilish salohiyati oshishi kutiladi.

Tanqidiy fikrlash – bu faktlar va dalillarga asoslanib, xulosalar chiqarish va qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Bu shunchaki ma’lumotni qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, baholash va mantiqiy xulosalar chiqarishni o‘z ichiga oladi.

Tafakkur bu fikrlash, ya’ni voqeа-hodisalar, muammolar va g‘oyalar haqida o‘ylash qobiliyatidir. U insonning bilish faoliyatining asosiy shakllaridan biri bo‘lib, dunyoqarash, xulq-atvor va xatti-harakatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Sh.A. Atadjanova fikricha, til o‘rganish jarayoniga zamонавиy metodlarni, madаниятлараро мухитни ва mustaqil tahliliy yondashuvlarni integratsiyalash tanqidiy fikr yuritish faoliyatini faollashtiradi. J.J. Jalolov, tanqidiy fikrlash o‘quvchi/talabaning muammoli vaziyatda savollar berishi, taxminlar ilgari surishi va izchil dalillarga asoslanib xulosa chiqarishi orqali shakllanadi. G.T. Mahkamovaning ta’kidlashicha, madаниятлараро muloqot kompetensiyasi zamонавиy ingliz tili o‘qituvchisining ajralmas qismidir. Tanqidiy fikrlash esa aynan madаниятлараро muloqot doirasida keng nuqtai nazarlarni anglash, muqobil fikrlarni tahlil qilish va xalqaro kontekstda fikr yuritish ko‘nikmasini talab etadi.

B. Blum taklif qilgan taksonomiyada “baholash” va “yaratish” darajalari tanqidiy fikrlashning asosiy bosqichlari hisoblanadi. Masalan, talaba biror ijtimoiy masala bo‘yicha ikki qarama-qarshi maqolani solishtirib, dalillarning ishonchlilagini tahlil

qilsa va o‘z pozitsiyasini asoslab bersa, u Blum yondashuviga muvofiq tanqidiy fikrlashni amalga oshiryapti.

Tanqidiy fikrlashning o‘ziga xos pedagogik - psixologik jihatlari mavjud. Talabalar tanqidiy fikrlashini o‘rganishda zamonaviy didaktika o‘qish jarayonida talabalar psixik tanqidiy fikrlashi bilan shug‘ullanuvchi ta’lim psixologiyasi yutuqlaridan foydalanadi. O‘quv materiali yosh va mazmunga bog‘liq holda bu faoliyatning o‘ziga xosligi ta’lim jarayoni psixologik qonuniyatlarini o‘rnatadi, tanqidiy fikrlashida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining individual va tipik xususiyatlarini ko‘rib chiqadi. O‘zlashtirish jarayonida tahliliy-sintetik faoliyat, shuningdek qiyoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish va aniqlashtirish kabi fikriy operatsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Tahlil bu – hodisani, fikrni yoki muammoni kichik tarkibiy qismlarga ajratib, ularning har birini alohida o‘rganish jarayonidir. Sintez - alohida elementlar yoki qismlarni bir butunga fikran birlashtirishdir.

Jumladan, Situation (Contextual problem): The students are shown a picture of a polluted river. The teacher asks: “Why do you think the river is polluted?” Then, the teacher gives different clues: plastic bottles, factory pipes, dead fish, etc. Finally, students are asked to suggest possible solutions to reduce river pollution.

Tahlil jarayoni: yuqoridagi misolda talabalar rasmdagi elementlarni (plastik butilkalar, sanoat quvurlari, o‘lik baliqlar) kuzatadi, ularning har biri ifloslanish sabablarini ko‘rsatishini tushunib yetadi. Har bir sabab alohida tahlil qilinadi: plastik chiqindilar – odamlar tomonidan tashlab ketilgan; sanoat chiqindilari – fabrikalarning ekologik me’yorlarga amal qilmasligi; o‘lik baliqlar – ifloslanish oqibatida hayotiy muhitning buzilishi;

Sintez jarayoni: Talabalar tahlil qilingan elementlarni birlashtirib, umumiyl xulosa chiqaradilar: daryo ifloslanishiga odamlar, sanoat va nazoratsizlik sabab bo‘lmoqda, so‘ngra ular bu muammoni hal qilish uchun o‘z fikrlarini sintez qiladi:

axlat tashlashni nazorat qilish,
sanoat chiqindilarini tozalash,
ekologik targ‘ibotni kuchaytirish.

Ushbu misolda talabalar tahlil orqali daryoning ifloslanish sabablarini aniqlaydi, sintez orqali esa muammoni hal qilish bo‘yicha yechimlarni ishlab chiqadi. Bunday yondashuv ingliz tilidagi fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini bilan bir qatorda tanqidiy fikrlashni ham rivojlantiradi, bu esa dissertatsiyaning asosiy g‘oyasiga xizmat qiladi.

Ingliz tili darslarida tahlil va sintezga asoslangan topshiriqlar orqali talabalar real hayotdagi muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tushunish va yechimlar taklif qilish orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Biroq, bu jarayonda talabalar ko‘pincha til qiyinchiliklariga duch keladi, jumladan: analitik fikrni ifodalovchi leksik birliklarning yetishmasligi (masalan, cause, consequence, impact, suggest, evidence kabi so‘zlar); murakkab grammatik konstruktsiyalardan foydalanishda qiyinchiliklar (masalan, sabab-oqibatni bildiruvchi because, therefore, due to, which results in kabi tuzilmalar); argument keltirishda dalillarni tartibli va mantiqan bayon qilishdagi qiyinchiliklar (firstly, moreover, however, in conclusion kabi diskurs markerlardan foydalanish); fikr bildiruvchi fe’llar va ifodalarni yetarli darajada bilmaslik (masalan, I assume, it seems that, one might argue that).

Shu bois, ingliz tilini o‘qitishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi samarali bo‘lishi uchun, aynan ushbu til unsurlarini tizimli ravishda o‘rgatish, ularni tahlil va sintez bilan bog‘liq topshiriqlarda faol qo‘llash imkoniyatini yaratish zarur.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonini tushuntiruvchi eng mashhur modellaridan biri – Benjamin Blumning taksonomiyasidir. Bu model kognitiv (aqliy) ko‘nikmalarini iyerarxik tartibda joylashtiradi va u ko‘plab o‘qituvchilar tomonidan quyidagi maqsadlarda keng qo‘llaniladi: dars rejalarini tuzish; o‘quv dasturlarini ishlab chiqish; ta’limni shaxsiylashtirish va differensiallashtirish; topshiriqlar murakkabligini baholash; onlayn kurslar ishlab chiqish.

Blum taksonomiyasining asosiy maqsadi – oddiy faktlarni yod olishdan ko‘ra, talabalarda tahlil, baholash va sintez kabi yuqori darajadagi tafakkur shakllarini rivojlantirishdir. Uning fikricha, o‘quv maqsadlari quyidagi kognitiv bosqichlarga asoslanadi (pastdan yuqoriga qarab): bilish (knowledge), tushunish (comprehension), qo‘llash (application), tahlil qilish (analysis), sintez (Synthesis), baholash (evaluation).

Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan amaliy topshiriqlar talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qildi. Ushbu topshiriqlar orqali talabalar axborotni tahlil qilish, mantiqiy tartibda fikrlash, taxmin qilish, muqobil fikrlarni baholash, o‘z pozitsiyasini asoslash, dalillash va qaror qabul qilish kabi tanqidiy fikrlashga oid muhim kompetensiyalarni egalladi.

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik va psixologik xususiyatlar chuqur o‘rganishni talab qiladi(1-jadval).

1-jadval

Pedagogik va psixologik xususiyatlar

Pedagogik xususiyatlar	Psixologik xususiyatlar
Muammoli ta’limga asoslangan	Kognitiv faoliyat darajasi
Refleksiya	Metakognitiv ko‘nikmalar
mustaqil ishlash	Shaxsiy motivatsiya
Interaktivlik	Hissiy barqarorlik
Diskursiv muhit	Muammoli vaziyatga munosabat.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ularning psixologik rivojlanish bosqichlari, emotsional barqarorligi, metakognitiv faolligi va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish esa innovatsion ta’lim muhiti yaratilgan sharoitdagina to‘liq amalga oshadi. Bunday muhitda ochiq muloqot, interaktiv yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, muammoli vaziyatlar va hamkorlikka asoslangan faoliyat orqali talabalar o‘z fikrini erkin ifoda etish, dalil keltirish, tahlil qilish va alternativ qarashlarni qabul qilishni o‘rganadi.

Innovatsion ta’lim muhiti nafaqat axborot texnologiyalarining joriy etilishi, balki psixologik xavfsizlik, ijodiy faollik va fikrlar xilma-xilligini qo‘llab-quvvatlaydigan ijtimoiy-psixologik sharoitni yaratish bilan ham ahamiyatlidir. Aynan shunday muhitda

talabaning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini tabiiy va barqaror shakllanadi, bu esa ularni raqobatbardosh, ongli va mas’uliyatli mutaxassis bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

Chet tilini o‘rganishda innovatsion ta’lim muhiti bu zamona viy usullar, ilg‘or texnologiyalar, interaktiv yondashuvlar va turli xil metodlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu usullar talabalar uchun qulay o‘quv muhitini yaratish va ularning darsga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Bunday innovatsion usullardan biri bu chet tilini o‘rganish uchun interaktiv onlayn platformalar va ilovalardan foydalanishdir. Bunday resurslar talabalar uchun qulay va mos bo‘lgan jadvalda o‘rganish imkoniyatini beradi, keng ko‘lamdagi o‘quv materiallaridan foydalanish hamda chat-botlar yoki video konferensiyalar orqali chet tilida muloqot qilish malakalarini mashq qilish imkonini yaratadi.

Zamona viy dunyoda Duolingo, Babbel, Rosetta Stone kabi ko‘plab interaktiv ta’lim platformalari mavjud bo‘lib, ular til o‘rganish uchun turli mashqlar, o‘yinlar, audio va video materiallarni taklif qiladi. Bu esa o‘quv jarayonini xilma-xil qilish va talabalar motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning metodik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini innovatsion ta’lim sharoitida rivojlantirish mazmunida notiqlik, diskussiya olib borish, argumentatsiya qilish, axborotni tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi faoliyatlarda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modeli va metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot ishlari shundan dalolat beradiki, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini til o‘rganish jarayonining amaliyotdagi holati chet tillarini o‘qitish bo‘yicha DTS talablaridan kelib chiqqan holda mazmunan mukammal yaratilgan fan dasturlari hamda ishchi o‘quv dasturlarining bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasidagi ahamiyati nihoyatda kattadir.

Shu nuqtayi nazardan ta’lim yo‘nalishi: 60111800- xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) bo‘yicha bakalavriat ta’lim bosqichida o‘qitiladigan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari katta bo‘lgan asosiy o‘rganilayotgan til fanida tajriba-sinov uchun tanladik va uning kasbiy tayyorgarlik jarayonida nutq ko‘nikmalarining integrallashuv imkoniyatlari aniqlandi. Ushbu fan “O‘qish va yozish amaliyoti” ni tadqiqot fani sifatida tanlab olindi.

Shuningdek, “O‘qish va yozish amaliyoti” modul bo‘yicha o‘quv dasturlarining tadqiqot mavzusi doirasidagi imkoniyatlari tahlil qilindi.

“O‘qish va yozish amaliyoti” fani dasturida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari egallashi kerak bo‘lgan tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatlarini qiyoslash va taqqoslash malakasini oshirish; kompetentlikni rivojlantirishga taalluqli masalalarga tanqidiy nazar bilan yondashish, ularni to‘g‘ri talqin qilish orqali tinglab tushunish, so‘zlashish, axborot qabul qilish va yetkazish uchun amalda qo‘llay olish; kasbiy sohada muhitning tilni qo‘llashdagi ta’siri haqidagi o‘z tushunchalarini oshirish;

o‘zga madaniyatni tushunish va unga nisbatan bag‘rikenglik xislatini rivojlantirish; hissiyotlarni va munosabatni ko‘rgan-kechirganlarni batafsil bayon qila olish kabilarga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish nazarda tutiladi.

Mazkur fanda 2-bosqich uchun ta’lim mazmunini tahlil qilish jarayonida quyidagi yo‘nalishdagi mavzular o‘z aksini topganligini ko‘rishimiz mumkin: ya’ni O‘qish aspektidan “Factual text types” (Story Reading: “The secret garden”) Strategy: making inference, Yozish aspektidan Essay writing: (Identifying the structure of essay writing), “Can climate change make us sicker?” (reading skills strategy: understanding text organization) (Iqlim o‘zgarishi sog‘ligimiz uchun zararlimi?) Writing practice. “Essay Writing” (Inshoni to‘gri yozish qoidalari), Reading practice. The text. “Time zones” (Dunyo vaqt zonalari haqida tushuncha. Scanning metodi), Writing practice. “Writing a coherent paragraph” kabilar.

Tahlillar shundan dalolat beradiki, mazkur modul mazmuni, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchi egallashi lozim bo‘lgan reading (o‘qish), writing (yozish) bilimlarni berish imkoniyatiga ega, shuningdek, talabalarga yuqorida bayon etilgan nutq ko‘nikmalari va modul bo‘yicha berilgan mavzularni o‘zlashtirishlari maqsadida kasbiy tayyorgarlik jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi va axborot va innovatsion texnologiyalar orqali yanayam modulni mukammal egallashlari va mazkur kurs moduli mazmunida quyidagi, ko‘nikma va malakalarni berishni tavsiya etildi: autentik materiallar orqali beriladigan matndagi ma’lumotlarni tushunish va qayta ishlash, keng talqin etishga o‘rgatish (o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi); ijodiy fikrlashni, u yoki bu habarning yashirin mazmunini tushunishni; salbiy mazmunli axborotlardagi yoshlarning ongini o‘zgartirish harakatlarga qarshilik qilishni bilishni rivojlantirish; talab etiladigan ma’lumotni topish, tayyorlash, yetkazish va qabul qilish malakasini rivojlantirish; o‘z o‘qituvchiligi bo‘yicha asl nusxadagi badiiy, ommabop va ilmiy matnlarni, ularning til, stilistik, estetik va madaniy xususiyatlarini aniqlash asosida, barcha turdagи o‘qishlarni amalga oshirish; matnni talqin qilish; ovoz chiqarib murojaatli o‘qishni amalga oshirish; o‘z fikrlarini chet tilida yozma shaklda (esse, ma’ruza, taqriz, rasmiy va shaxsiy xat-xujjatlar, e’lon, ijtimoiy – siyosiy va axloqiy - estetik mavzudagi referatlar va tezislar) ifodalay olish (yozma nutqning tavsiflari - kommunikativ niyatni mos ravishda amalga oshirish, aniqlik, mantiqiylik, mazmundorlik, bogliqlik, mazmuniy va tuzilish jihatidan yakunlanganlik, til normasiga mosligi); jahon texnika va texnologiyasi taraqqiyoti, bu sohada O‘zbekistonning o‘rni borasidagi ma’lumotlarni ham bo‘lajak chet til o‘qituvchilar ongiga singdirish lozim.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usul va yo‘llarini aniqlar ekanmiz, biz uning o‘qish va yozish orqali rivojlanishga asoslangan texnologiyani (bundan keyin – O‘YT) tanladik. Bu texnologiya amerikalik pedagoglar J.Stil, K.Meredit va Ch.Temple tomonidan ishlab chiqilgan. Uning tuzilmasi puxta va mantiqiy bo‘lib, shaxsning kognitiv (bilish) faoliyati bosqichlariga mos keladi va "chaqiriq – anglash – refleksiya" ko‘rinishidagi texnologik modelda ifodalananadi(2-jadval).

Taqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi - bosqichlari va uslubiy texnikasi

Bosqich	O'qituvchi roli	Talaba roli	Amaliy topshiriqlar namunasi
1. Chaqiruv (Evocation)	Talabalarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha mavjud bilimlarni uyg'otishga, ularning faoliyatini faollashtirishga hamda keyingi ishga motivatsiya yaratishga yo'naltirilgan.	Talaba o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'ziga ma'lum bo'lganlarni "eslaydi" (taxminlar bildiradi), yangi materialni o'rganishdan oldin ma'lumotlarni tizimlashtiradi, javob olishni istagan savollar beradi.	"Ma'lum bo'lgan ma'lumotlar" ro'yxatini tuzish: asosiy so'zlar bo'yicha hikoya yoki taxmin bildirish; materialni grafik tarzda tizimlashtirish: klasterlar, jadvallar; to'g'ri va noto'g'ri bayonotlar; aralashgan mantiqiy zanjirlar va boshqalar.
Chaqiriq bosqichida olingen ma'lumotlar tinglanadi, qayd etiladi va muhokama qilinadi. Ish individual, juftlik yoki guruhlarda olib boriladi.			
2. Anglash (Realization of Meaning)	Yangi ma'lumot bilan bevosita ishlashda mavzuga bo'lgan qiziqishni saqlab qolishga, "eski" bilimlardan "yangi" bilimlarga bosqichma-bosqich o'tishga yo'naltirilgan.	Talaba matnni o'qydi (tinglaydi), o'qituvchi taklif qilgan faol o'qish usullaridan foydalanadi, yangi ma'lumotni anglash jarayonida chetga yozuvlar yoki eslatmalar qiladi.	O'qish jarayonida matn chetlariga «V», «+», «-», «?» kabi belgilar qo'yish; turli yozuvlarni yuritish, masalan, ikki jurnal, kundalik yoki log-kitob shaklida; darsning birinchi qismida qo'yilgan savollarga javoblarni izlash.
Mazmunni anglash bosqichida yangi ma'lumot bilan bevosita aloqada bo'lish amalga oshiriladi (matn, film, ma'ruza, paragraf materiali). Ish individual yoki juftlikda olib boriladi.			
3. Refleksiya (Reflection)	O'qituvchi talabalarni dastlabki taxmin va yozuvlariga qaytarib, ularda zarur o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritadi hamda o'rganilgan ma'lumotlar asosida ijodiy, tadqiqot yoki amaliy vazifalar beradi.	Talabalar yangi ma'lumotni eski ma'lumot bilan solishtiradilar va mazmunni anglash bosqichida olingen bilimlardan foydalanadilar.	Klasterlar, jadvallarni to'ldirish. Ma'lumot bloklari orasida sabab-oqibat aloqalarini o'rnatish. Asosiy so'zlarga, to'g'ri va noto'g'ri fikrlarga qaytish. Berilgan savollarga javob berish. Og'zaki va yozma shaklda doira stol tashkil etish. Turli turdag'i munozaralar tashkil qilish. Ijodiy ishlar yozish. Mavzuning ayrim savollari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va boshqalar.
Refleksiya bosqichida o'rganilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, ijodiy qayta ishlanadi va talqin etiladi. Ish individual, juftlikda yoki guruhlarda olib boriladi.			

Biz darslarni tashkil qilishda "chaqiriq – anglash – refleksiya" modelini qat'iy texnologik algoritm sifatida saqlab qoldik. Metodik usullarni tanlashda esa, ayniqsa talabalarning nutqiy faoliyatini faollashtiruvchi usullarga alohida e'tibor qaratdik, chunki xorijiy tilni kasbiy maqsadlar uchun muvaffaqiyatli o'zlashtirishda og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Taqidiy fikrlashning shakllanishida divergent (tarqoq) va konvergent (yig'ma) fikrlash turlari muhim rol o'ynaydi. Ushbu ikki fikrlash turi inson tafakkurining muammoga yondashuvi va uni hal qilishdagi kognitiv strategiyalarini belgilaydi.

Divergent fikrlash orqali talaba bir masalaga ko‘plab original va kreativ yechimlar taklif etsa, konvergent fikrlash bu g‘oyalardan eng maqbulini tanlash va mantiqiy asoslash imkonini beradi. Shu jihatdan, ingliz tili ta’limida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bu ikki fikrlash turining uyg‘un qo‘llanilishini talab qiladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishni kasbiy tayyorgarlik jarayonining markaziy yo‘nalishi sifatida belgilaydi hamda ushbu jarayonni interaktiv-tahliliy ta’lim muhiti asosida yaxlit pedagogik makon sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish modeli (1-rasm) alohida mashg‘ulotlar majmuasi sifatida emas, balki ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi, o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan integrativ tizim sifatida talqin etiladi.


Yondashuv markazida analitik mulohazaning argumentativ-kommunikativ ifodaga bosqichma-bosqich transformatsiyalanishi jarayoni turadi. Ya’ni talaba tomonidan matn yoki muammo asosida shakllangan tahliliy fikrlar dalillash, asoslash va muloqot jarayonida aniq ifodalash orqali mukammal nutqiy pozitsiyaga aylantiriladi. Bu jarayonda interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, munozaralar, loyiha ishlari hamda refleksiv topshiriqlar yetakchi vosita sifatida qo‘llanadi.

Shuningdek, tanqidiy tahlilning diskursiv me’yorlari – mantiqiylik, izchillik, dalillilik, obyektivlik va kommunikativ madaniyat – metodologik asos sifatida qabul qilinadi. Mazkur me’yorlar asosida talabalarning fikrlash faoliyati bilimlarni oddiy o‘zlashtirishdan ularni tahlil qilish, baholash va asosli xulosa chiqarish darajasiga ko‘tariladi. Natijada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, asosli fikr bildirish va samarali muloqot olib borish kompetensiyalari rivojlanadi.

Innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modeli maqsad va vazifalarini, tamoyillarini va funksiyalarini maqsadli komponent ifodalaydi. Maqsadli komponent pedagogika oliy ta’lim muassasasida aksilogik yondashuv asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish natijasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagi yondashuvlar muhim deb topildi: shaxsga yo‘naltirilgan, tizimli-faoliyatga asoslangan, kompetensiyaviy, kommunikativ-kognitiv. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv shaxsiy imkoniyatlarni namoyon qilish va talabalarning sub’ektiv tajribasini rivojlantirishga imkon beruvchi sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Biz ajratib ko‘rsatgan yondashuvlar quyidagi prinsiplar asosida qurilgan: kommunikativ yo‘naltirilganlik, subyektdorlik, o‘quv faoliyatidan hayotiy faoliyatga boshqariladigan o‘tish prinsipi, shuningdek, shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonni qurish prinsipi.

Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim jarayoni samaradorligi, avvalo, to‘g‘ri tanlangan metodik tizimga bog‘liq bo‘lib, u o‘qitishning mazmun-mohiyatini amaliy harakatga aylantiradi. Bunday tizim o‘z ichiga metodlar (o‘qitish usullari), shakllar (tashkiliy formatlar) va vositalar (didaktik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)ni qamrab oladi. Ularning uzviy bog‘liqligi va maqsadga muvofiq tanlanishi talabalarning faol intellektual ishtirokini ta’minlab, tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan o‘qish va yozish orqali rivojlanishga asoslangan texnologiya bilan bir qatorda quyidagi texnologiyalar ham amaliyotda takomillashtirildi.



1-rasm. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modeli

